

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUSTA'LIMVAZIRLIGI**

**TOSHKENT TO'QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT
INSTITUTI**

«LIBOSLAR DIZAYNI» KAFEDRASI

Eshonqulova Maftuna

**"Harbiylar" uslubida zamonaviy liboslar to'plami dizayn loyihasini ishlab
chiqish**

mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi

Ilmiy rahbar:

dots. Yunusxodjayeva X.M.

«____»_____2015 y.

TOSHKENT 2015

Mundarija:

Kirish.....	1
1. Loyiha oldi qismi.....	5
1.1. Kolleksiya konsepsiyasini ishlab chiqish.....	5
1.2. Ayollar liboslari bo'yicha istiqbolli moda yo'nalishi tavsifi.....	8
1.3. Marketing tadqiqotlar.	11
1.4. Ayollar liboslar to'plamiga qo'yiladigan talablar.	13
1.5. Ijodiy manbaani tanlash, asoslash va uslublash.	15
2. Loyiha qismi.....	18
2.1. Eskiz loyihalash.....	18
2.1.1. Kolleksiyaning kompozitsion yechimi va koloristik qatorini tanlash.	18
2.1.2. Yakunlovchi eskizlarni yaratish va modellarni texnik tavsifini ishlab chiqish.....	22
2.1.3. Texnik eskizlarni yaratish.....	32
2.2. Kolleksiyaning loyihalash usulini tanlash va asoslash.....	35
2.3. Konstruktor - texnologik qism.	36
2.3.1. Kolleksiya uchun materiallar paketini konfeksiyalash.	36
2.3.2. Konstruktsiyalash usulini tanlash va asoslash.	39
2.3.3. Buyum asosiy detallar chizmalarini qurish uchun dastlabki ma'lumotlar..	40
2.3.4. AK va BK hisobi va qurish.....	42
2.3.5. AK va BK konstruktiv - dekorativ modellashtirish.....	46
2.3.6. Ishchi hujjatlarni ishlab chiqish.	50
2.3.6.1. Yangi modellar andozalarini tayyorlash tamoyillari tavsifi.....	50
2.3.6.2. Andozalar joylashmasi.....	54
2.3.7 Texnologik ishlov berish xususiyatlari.....	55
2.4. Kolleksiya reklama loyihasini ishlab chiqish.....	56
2.4.1. Nom tanlash (Brand-name).....	56
2.4.2. Kolleksiya reklama loyihasini ishlab chiqish.	57
3. Ekologik qism.....	59
Xulosa.....	62
Adabiyotlar ro'yxati.....	63
Ilova.....	65

Kirish

To'qimachilik va yengil sanoati sarmoyalarni sarflash uchun uchinchi yo'nalishdir. O'zbekiston jahonda ko'p paxta yetishtiradigan davlatlardan biridir. Bundan tashqari, ipak, sun'iy tola, jun kalava ishlab chiqaramiz. Biz to'qimachilik va yengil sanoat tarmog'ini har tomonlama yangilash loyihasini tayyorlashga doir barcha ishlarni qo'llab quvvatlanyapti [1].

Kiyim insoniyat moddiy madaniyatining elementidir. Kiyim ishlab chiqarishni loyihalayotganda fan-texnika va amaliy san'atning so'nggi yutuqlaridan eng yuqori darajada foydalaniladi, qulay kompozision va konstruktiv yechimlar tanlab olinadi. Tikuvchilik ishlab chiqarishning fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirishda mehnat unumdorligini oshirishdagi pirovard natijaga erishishda, ishlab chiqariladigan mahsulot sifatini yaxshilashda texnologiya, mexanizasiyalashtirish va avtomatlashtirish, ishlab chiqarishni va mehnatni tashkil etish sohasida erishilgan yangi yutuqlarni joriy qilish yo'li bilan texnik qayta qurollantirish asosiy rol o'ynaydi. Bo'lajak buyumning sifati va uni yaratilayotganida asos solinadi. Ilgarilari kiyim yakka tartibda xonaki tartibda tikilgan. Asta-sekin kiyim tikish markazlashib, atelfelarda, fabrikalarda tikiladigan bo'lib, tikuvchilik sanoati vujudga keldi. Mustaqillikka erishilgandan so'ng, yurtboshimiz tomonidan to'qimachilik va yengil sanoat yo'nalishlariga ham alohida e'tibor qaratildi. . Keyingi yillarda O'zbekistonda yirik tikuvchilik sanoati barpo qilishga va uni rivojlantirishga e'tibor berildi. O'zbekiston yirik tikuvchilik sanoati bor respublikaga aylandi. Tikuvchilik korxonalari harbiy kiyim-kechak tikishga o'tkazildi. Shu yillari hamma tikuvchilik korxonalarida majburiy ravishda kiyim tikishning sifatli texnologik qurilmasi ishlab chiqildi. O'zbekistonda tikuvchilik sanoati ishlab turgan korxonalarni yangi texnika bilan qayta qurollantirish hisobiga rivojlandi. Bu kabi ishlarning avvalida yurtboshimizning hissalar juda katta desak,aslo mubolag'a bo'lmaydi. Bu

ishlarning tasdig'i sifatida prezidentimizning : "O'zbekiston: milliy Istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura" asarlaridagi bir jumlani yodga olishimiz o'rinli:

"Avvalo, biz, yangi aholi talabiga mos mahsulot ishlab chiqaradigan sex, korxonlar qurib ish o'rinlari tashkil etishimiz, imkoni boricha barchani ish bilan ta'minlab, vatanimiz ravnaqiga o'z hissamizni qo'shimiz kerak" [2].

O'zbekistonda dizayn mustaqillikdan so'ng davlat miqyosida tan olindi. 1998 yili O'zbekiston Badiiy Akademiyasining va uning qoshida Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy Rassomlik va Dizayn Institutining tashkil topishi Respublikamizda dizaynning tez su'ratlar bilan rivojlanishga yo'l ochdi. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatoriga Dizayn alohida ta'lim yo'nalishi sifatida kiritildi. Hozirgi kunda, MRDIda "Dizayn", "Libos dizayni" "Amaliy grafika" kafedralarida, Toshkent To'qimachilik va Yengil Sanoat Institutining "Liboslar Dizayni" kafedrasida, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Toshkent Davlat Texnika universitetining "Dizayn" kafedrasida, Toshkent Arxitektura Qurilish Institutining "Arxitektura muhit dizayni" kafedrasida, Toshkent To'qimachilik va Yengil Sanoat Institutini "Libos Dizayni" kafedrasida, Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand Davlat Arxitektura Qurilish Institutida "Dizayn" ta'lim yo'nalishi tarkibida dizaynning bir necha turlari bo'yicha bakalavr va Magistrlar tayyorlanmoqda. Bulardan Tashqari, Respublikamizning bir necha qator kollej va liceylarida ham talabalarga "dizayn" sohasi maxsus fan sifatida o'quv dasturiga kiritilgan. Respublika dizaynerlari yaratgan liboslarida milliylik nafasi urib turadi. Zamonaviy badiiy jarayonda libos modasiga bo'lgan e'tibor unga nisbatan tobora oshib bormoqda. O'zbekistonda, ayniqsa poytaxtimiz Toshkentda modalar ko'rgazmalari bo'lib o'tmoqda. Hattoki, ma'lum bir voqeaga bag'ishlangan tadbirlar ham moda ko'rgazmasi ishtirokisiz o'tmay qoldi. Ushbu modalar festivali va ko'rgazmalarning asosiy g'oyasi yosh iqtidorli dizaynerlar va zamonaviy modada kechyotgan voqealar bilan ommani tanishtirishdir. "Milliy Libos", "Bolajonlar-Shirintoylar", "Yurt kelajagi" va "Xonatlas kuni" kabi

moda festivallarida yosh dizaynerlarning modellari shaklining jozibador va ixchamliligi, aniq mutanosibligi o'zbek milliy libosi an'analari va zamonaviy moda shakllarining uyg'unlashtirishi matoga o'zgacha badiiy yondoshish bilan uyg'unlashib o'zga dizaynerlardan ajralib turadi. Bundan tashqari dizaynerlar faoliyatini yanada kengaytish yaxshilash maqsadida bir necha uyushmalar tashkil etilgan. Shulardan eng yirigi O'zbekiston Dizaynerlar Uyushmasining qoshida "Osiyo Ramzi" O'zbekiston modelyerlar assotsiatsiyasi tashkil etilgan. Bu uyushmaning asosiy maqsadi-O'zbekiston libos dizaynerlarini birlashtirib, o'zbek modasini yaratishda dunyoga tanishtirish, model va reklama biznesida O'zbekistonni ishbilarmon doirasini (davlat tashkilotlarni, biznesmenlari, firmalar, kompaniyalar va b.) moda industriyasini ijodkorlari bilan o'zaro a'loqasini tashkil etish. Respublika dizaynerlari yaratgan liboslarida O'zbek milliy naqsh va ornamentlari keng qo'llaniladi. Sharqqa hos klassika, milliy kashtachilik va faqat tabiiy matolardan Osiyocha ekzotika zamonaviy talqinda aks etmoqda. Zamonaviy badiiy jarayonda zamonaviy moda yo'nalishiga bo'lgan e'tibor unga nisbatan tobora oshib bormoqda. O'zbekistonda bu borada qator islohatlar, qator tadbirlar, milliy liboslar moda festivallari amalga oshirilmoqda.

Dolzarliligi. Yuqorida aytib o'tilganlardan kelib chiqib, yani xam milliy mintalitetimiz me'yorlarini buzmagani xolda, xam ayollarning xilma –xil va o'ziga xos, betakror talab va ehtiyojlarini inobatga olgan xolda ushbu bitiruv malakaviy ishida to'qish texnikasi usulida liboslar to'plami yaratildi. Hozirgi kunda trikotaj mahsulotlariga juda kata qiziqish bilan qaralmoqda. Trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi korxonalar kundan-kunga ko'payib, raqobatbardoshligi oshib bormoqda. Mahsulotlarni eksportga chiqarish imkoniyatlari kengayganligi, ichki bozorimizda mahsulotlarni turlichaligi, faqatgina yutuqlarimizdan biridir. Buyumlarning ishlab chiqishning asosiy maqsadi - aholini moddiy va ruhiy talablarini qondirish va buyumlarni ijtimoiy maqbulligidadir. Bizning jamiyat oldidagi ma'suliyatimiz faqat

mahsulotni sifatigagina emas, balki insonni madaniy saviyasini ko'tarishimiz kerak.

Biz dizaynerlar - sanoat tarmoqlarida iste'molchi tizim aloqasini, ya'ni yangi ilmiy loyihalash usulini barpo etishimiz lozim.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi: .“Harbiylar” uslubida zamonaviy liboslar to`plami dizayn-loyihasini ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishning vazifalari:

- Kolleksiya konsepsiyasini ishlab chiqish;
- “Harbiylar” uslubida zamonaviy liboslar to`plami dizayn-loyihasini ishlab chiqish uchun istiqbol moda yo'nalishini tahlil etish;
- Marketing tadqiqotlarini olib borish;
- Berilgan kiyim assortimenti bo'yicha liboslar to'plamiga qo'yiladigan talablar ishlab chiqish;
- Ijodiy manbani tanlash va asoslash;
- Kolleksiyaning kompozitsion yechimini va koloristik qatorini ishlab chiqish;
- Kolleksiyaning loyihalash usulini tanlash;
- Kolleksiya reklama loyihasini ishlab chiqish;

1. Loyiha oldi qismi

1.1.Kolleksiya konsepsiyasini ishlab chiqish

Kostyum dizaynida mavjud konsepsiyalar, odatda, o'z davr dizayning asosiy muammolarini oqimidadir va turmush tarzini o'zgarish umumiy rag'batlari bilan bog'lanishidadir. Ammo, bu umumiy rag'batlar dizaynda xar hil mualliflar konsepsiyalarida o'zlashtiriladi, ya'ni dizaynerlar buyumning funksiyasiga o'zgacha qarashadi, garderobni ta'millash turli konsepsiyalarini tarafdorlari bo'ladi, xar hil shakllantirish usullarni qo'llashadi, turli turmush tarzda yashayotgan insonlarga o'z kiyimini taklif etishadi. Bundan tashqari, kiyim dizaynini o'ziga hosligi shundaki, konsepsiya matnda emas, balki vizual shaklda o'z ifodasini bayon etadi. Modani mavsumiy o'zgarish ritm an'anasi kiyim dizaynida ijodiy konsepsiyasini asosiy o'zlashtirish shakli - modellar namoyishdir.

Xar bir kolleksiya yaratilishidan oldin turli fikrlar tug'iladi. Fikrlar yig'lib ma'lum bir g'oyani tashki qiladi. Konsepsiyani asosini tayanch nuqtasida g'oya turadi. Ushbu bitiruv malakaviy ishini asosiy g'oyasini ya'ni konsepsiyasini to'qish tashkil qiladi (1,2,3-rasm).



1-rasm




2-rasm




3-rasm

Makrame- bu tugunchadan tashkil topadigan qo'l ishi (qo'lda to'qish), chevarlikning bir turi hisoblanadi. Makrame dastlab ikki ipni o'zaro birlashtirish, ulash oddiy funksional zaruriyatdan kelib chiqqan, lekin u asta-sekin bezak ahamiyatiga ega bo'lgan san'at turi hamdir. Buni quyidagi 4,5-suratlarda ko'rishimiz mumkin.



4-rasm



5-rasm

“Harbiylar” uslubida zamonaviy liboslar to'plami dizayn-loyihasini ishlab chiqish jarayonida, qulayligini, zamonaviy bo'lishini, ranglarni uyg'unligini hisobga olgan holda liboslar to'plamini tasavvur qilib, uni amalda yaratish maqsad qilib olindi. Tasavvur qilingan liboslar to'plamini biror bir narsaga asoslanib g'oyaviy fikrlash uchun va shu liboslar to'plamini amalda yaratish maqsadida, turli hil buyumlarga e'tibor berildi. Ana shunday jarayonlarda Temuriylar davriga oid harbiy liboslar qiziqtirib qo'ydi. Bu harbiy liboslarning shakli, tayyorlanish jarayoni, ranglari liboslar to'plamini yaratishda ilhom bag'ishladi.

1.2. ‘‘Harbiylar’’ uslubida zamonaviy liboslar to‘plami dizayn-loyihasini ishlab chiqish bo‘yicha modani istiqbolli yo‘nalishi

Kutilayotgan yangi mavsumni, barcha didli insonlarni bir narsa qiziqitirmoqda, Kelasi bahor-kuz 2015 mavsumida nimalar urf bo‘lishi.

London, Parij, Milan, Nyu-York, bo‘lib o‘tgan moda haftaligi, kelasi mavsumda nimalar, qanday uslub va qanday kostyumlar modaga kirishi haqida tushuncha berdi desak ham bo‘ladi. Dunyoga mashxur brend asoschilari tomonidan yaratilgan kolleksiyalaridan ko‘rish mumkin, dizayner asosiy urg‘uni ayollik latofatiga berishmoqda va hech qanday unisex obrasi va uslubi haqida gap ham bulishi mumkin emas.

Shu sababli, zamonaviy moda tahlili rejasi asosida, barcha 200da ortiq dunyoga mashxur bo‘lgan turli xil brendlarning dizaynerlari tomonidan deyarli bir vaqtda yaratilgan kolleksiyalarni izchillik bilan tahlil qilib koramiz. . Ushbu mavsumda ko‘plab taniqli dizaynerlar bor e‘tiborlarini yaltiroq, pistonli, ko‘zga tashlanadigan, oqshom matolariga qaratmoqda. Bu matolardan nafaqat oqshomlarda, balki kundalikda ham kiysa bo‘ladigan liboslar to‘plamini yaratishmoqda. Moda namoyishlarining bahor-yoz 2015 mavsumi uchun podyumga chiqqan ko‘p kolleksiyalarda buni yaqqol ko‘rish mumkin.

Masalan, Dolce&Gabbana 2014-2015 yilgi kolleksiyasi ayollar hamda erkaklar uchun yaratilgan. Uning bu to‘plamida yorqin rangli, qimmatbaho matolar jijimador naqshlar, qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan. Bunga quyidagi rasmlar yaqqol misol:



6-rasm. Dolce&Gabana



7-rasm. Dolce&Gabana

Ayniqsa kiyimlar keng va qulay bo'lsa.



8-rasm. Dolce&Gabana

1.3. Marketing tadqiqotlar

“Harbiylar” uslubida zamonaviy liboslar to`plami dizayn-loyihasini ishlab chiqish bo`yicha buyumlarni o`xshash modellarni taxlil etish

Marketing tadqiqotlari deganda marketing faoliyatining turli jihatlari bo'yicha ma'lumotlarni sistemali yig`ish, tartibga solish va tahlil qilish tushuniladi. Marketing tadqiqotlari marketologlarni axborotlar orqali bozor, iste'molchilar, raqobatchilar va marketing tashqi muhitining boshqa elementlari bilan bog`lovchi funktsiya hisoblanadi.

Ayniqsa, bozor munosabatlari tobora chuqurlashib borayotgan bugungi kunda har bir korxona uchun marketing tadqiqotlari o'tqazishning ahamiyati beqiyosdir. Chunki, marketing tadqiqotlariga asoslanib, korxonalar mahsulotlariga bo'lgan talabni va bu mahsulotning raqobatbardoshligi qanday ekanligi haqida ma'lumotlar oladilar.

Marketing tadqiqot va bozorni o'rganishdan asosiy maqsad iste'molchilarni didi va talabini qanday uslubdagi mahsulotlar ko'proq yoqishi va haridorligi o'rganib, tahlil qilishdan iborat.



9-rasm



10-rasm

Xalqni iste'mol mollari bilan taminlashda tikuvchilik sanoati yangi sanoat tarmoqlari ichida eng yetakchi o'rinda turadi. O'zbekiston xalqini yuqori sifatli, turli asortimentdagi kiyimlar bilan ta'minlash uchun yakka buyurtmalar modaga mos va yuksak didli kiyimlarga buyurtma qabul qilib tikadigan korxonalar mavjud.

Mahsulot sifatini idora qilish unga ta'sir etuvchi omillarni tinimsiz nazorat qilib, mahsulotni loyihalash, ishlab chiqarish va iste'mol jarayonida yetarlicha sifat darajasini taminlab turish.

Eksportga tayyorlanayotgan mahsulotlarni raqobatbardoshligiga va patent jihatidan tozaligi muhim ahamiyat kasb etadi. Kiyim sifatiga oid ijtimoiy ko'rsatkichlardan o'lcham va bo'ylar asortimentidan xaqiqiy extiyojlar xajiga muvofiqligi muhim hisoblanadi.



11-rasm.



12-rasm.

1.4. “Harbiylar” uslubida zamonaviy liboslar to`plami dizayn-loyihasini ishlab chiqish uchun buyumga qo`yiladigan talablar

“Harbiylar” uslubida zamonaviy liboslar to`plami dizayn-loyihasini ishlab chiqishda avvalambor estetik ko`rsatkichlarga javob berishi kerak.

Estetik ko'rsatkichlar kiyimni shaxsiy iste'mol predmeti sifatida baholashda o'ziga xos ahamiyatga ega. Estetik xususiyatga ega bo'lmagan kiyim foydasiz buyumga aylanadi, chunki u o'z maqsadli funksiyasini — insonning estetik talabini qondiradigan o'ziga xos xususiyatni bajara olmaydi.

Kiyim nafosatining ifodalanish darajasi barcha konstruktiv elementlarning nafisligini aniqlaydi. Shakl tektonikasi buyum shakli, konstruksiyasi, materiallar xususiyatlarining o'zaro bog'lanishi va uyg'unlashuvidir

“Harbiylar” uslubida liboslar to`plami zamonaviy modaga mosligi: kiyimning estetik ko'rinishi barcha konstruktiv elementlarning ya'ni, detallar simmetrik joylanishi, biriktiruvchi va bezatuvchi choklarning ravonligi, astarning sifati va buyumning rangiga mosligi o'ziga xos yechimi, ifodaliligi, buyumning xaridorgir ko'rinishini ta'minlaydigan elementlari majmuiga bog'liq.

Funksional ko'rsatkichlar kiyimning asosiy vazifasiga, iste'molchining tashqi ko'rinishiga va uning psixologik xususiyatlariga mosligini bildiradi. Buyumning barcha xossalari uning vazifasiga bog'liq holda tanlansa, buyum insonning ehtiyojini qondira oladi. Ayni buyumning vazifasi modelga, uning konstruksiyasiga va materiallariga qo'yiladigan talablarni shakllantira oladi. Odamlarning yoshi, o'lchamlari, to'lalik guruhlari ichida tashqi ko'rinishi va psixologik tuzilishida keskin farqlanish mavjudligi bois bir xil vazifali kiyim ham ushbu guruhlarga mansub bo'lgan xususiyatlar hisobga olingan holda loyihalanadi.

Ergonomik ko'rsatkichlar buyumning insonga moslashganlik darajasini bildiradi. Ergonomika (*ergon* — mehnat, *nomos* — qonun) insonni muayyan faoliyat sharoitida o'rganadigan hamda inson, buyum va atrofdagi muhitning o'zaro bog'lanish qonuniyatlarini o'rganadigan ilmiy fandır.

Kiyim inson tanasining 80 foizini bekitib, unda psixofiziologik taassurot ya`ni kayfiyat, toliqish xususiyati, issiqlik, sovuq, komfort, qulaylik, bosim kabilarni uyg`otadi uyg'otadi.

Ekspluatatsion ko'rsatkichlar. Qator sanoat mahsulotlari kabi kiyimga ham muhim ekspluatatsion ko'rsatkich bo'lgan «ishonchlilik» xosdir. Tikuv buyumlarining ishonchlilik xususiyati iste'mol jarayonida ma'naviy yoki fizikaviy yaroqsizlikka kelgan vaqt bilan o'lchanadi. Ideal holatda ma'naviy va fizikaviy yaroqsizlik vaqtlari teng bo'ladi. Eksplutatsiya davrida kiyimning ishonchlilik ko'rsatkichi detallarning shakl saqlovchanligi, chidamliligi, choklarning pishiqligi bilan xarakterlanadi.

1.5.Ijodiy manbani tanlash va asoslash

Ijodiy jarayon-bu mazmun va shakl birligini qidirishdir. Ayrim hollarda ijodiy vazifa yechilganda, an'anaviy usullarni qo'llanishi qiziqarli yechimni bermaydi.Shuning uchun loyixalash jarayonida dizaynerlarning ijodiy faoliyatini intensivifikasiyalashga yo'naltirish mumkindir.Butun jahon dizaynerlari barcha sohalarida davrga munosib yangi mahsulotlarni yaratish uchun yangi go'yalarni har qadamda qidirshadi.buyumlarni ishlab chiqarish firmalari dizaynerlardan qiziqarli g'oyalarni emas, balki ajoyib yangicheksiz, g'oyalarni talab qilishadi. Bu esa ijodiy fantaziyaning yanada jadallashtirish usullarini izlanishiga sabab bo'ladi.

Dizayner kossyum kolleksiyasini yaratishda avval ijodiy manbaaga asoslanadi. Har bir dizayner,o'z kolleksiyasini yaratishda ijodiy manba sifatida har qanday tabiiy hodisalardan tortib, oddiy bir oshxona buyumigacha, tabiiy muhitning turli elementlarigacha foydalanishi mumkin. Aytaylik, u dunyoda sodir bo'layotgan voqea, musiqa,rangtasvir,adabiyot, balet, teatr, sirk,kino, etnik mavzular, muhandislik inshootlari, hattoki mashina detallari ham bo'lishi mumkin.

Oddiy bir amaliy san'at asarlarining bir necha turlarini, (shisha, tosh,yog'och, metall,keramika va b.) tayyorlanishini, musiqa asboblarining turlarini, yer fakturasidan tortib yomg'ir shamolgacha ijodiy manba sifatida foydalanishi ham mumkin ekan.

Ushbu Bitiruv malaka ishiga ijodiy manba sifatida A.Temur harbiy liboslari olindi.

Harbiy kiyimlar- harbiy xizmatchilarning harbiy kiyim formalari.Harbiy kiyimga odatda quyidagilar kiradi: ustki kiyimlar (shinel, bushlat, plashch, mundir, kitel, kalta paxtali kamzul, tujurga, shim, va b. 13-rasmdagi kabi), bosh kiyimlar (telpak, popoq, soyabonli va soyabonsiz furak, 14-rasm), ustki

ko`ylak, sharf, qo`lqop, poyabzal, kamar, aslaha-anjomlar. Harbiy unvon belgilari harbiy kiyim formalarining majburiy elementlari hisoblanadi.



13-rasm.



14-rasm.

Tanlangan ijodiy manba quyida keltirilgan 15,16,17-rasmlardagi kabi uslublandi.



15-rasm



16-rasm



17-rasm

2. Loyiha qismi

2.1 Eskiz loyihalash

2.1.1 “Harbiylar” uslubida zamonaviy liboslar to`plami dizayn-loyihasini ishlab chiqish kompozitsion yechim va ranglar uyg`unligi

Rang buyumning eng muhim informatsion sifatlaridan biri hisoblanadi. Bizni o'rab olgan tashqi muhit – rangli olam tabiatda rangsiz mavjudot, o'simlik va buyum yo'q. Odam yaratgan asarlari orasida ham rangsiz buyumlar yo'q. Rang orqali biz mahsulot haqidagi ma'lumotga egamiz. Uning rangi “og`ir” va “yengilligiga” qarab, model yoki buyum haqidagi tasavvurga ega bo'lamiz. To'q ranglarni og`ir, och ranglarni esa yengil tasavvur etamiz. Rangning fizik hossalarning tavsifi ko'rkamlilik va salobatlik

ta'surotini beradi. Ko'pgina tadqiqot o'tkazgan olimlarning asarlarida rang – bu qandaydir kuch deb atalganligi, odamning ruhiyatiga salbiy yoki ijobiy ta'sir etish mumkin. Ranglarda odamlarning turli his-tuyg`ularini uyg`otadi.

Qora rang – oq rangning qarama-qarshi belgisi bu qora, u qamma rang bilan uyg`unlashadi.

Yashil rang – bu yozning rangi, bunda ham tabiat dam oladi.

Sariq rang – quvnochlik, hayotdan hursandlik, chaqqonlik. Tajribani ko'rsatishga sariq rang iliq yoqimtoy tassurot qoldiradi.

Havo rang – odam pulsini sekinlashtirib, qon bosimini tushiradi, nafas olishni yaxshilaydi.

Ko'k rang – qimmatbaho sapfir toshning rangi, hind astronomiyasida ko'k rangni Saturn sayyorasining rangi bilan solishtiriladi.

Qizil rang – bu rang diniy ramzlar ichida Olloh Taoloning qudrati ramzidir. Baxt va Quvonch tantana rangidir.

“Harbiylar” uslubida liboslar to'plamini yaratishda sovuq, ya`ni aynan metall ranglardan foydalanilda.


Kolleksiyani ijodiy manbasi sovut bo`lganligi sababli ham kulrang ranglar koloristik qatori olindi, (18,19-rasmlar).



18-rasm



19-rasm



20-rasm



21-rasm.

**2.1.2 "Harbiylar" uslubida liboslar to'plami modellarining eskizlarini
toza nusxasini rangda ishlab chiqish**



2.1.3 "Harbiylar" uslubida liboslar to`plami modellar tavsifi.

Asosiy modelga tavsif

Street style yo`nalishidagi ayollar kostumi.

Silueti to`g`ri.

Old bo'lak uzunligi bo'ksa chizig'idan pastroq, ort bo'lak 10 sm uzun.

Yeng yaxlit uzun.

Bo'yin o'mizi eskiz bo'yicha shakllantirilgan.

Kostyum payet matoli va qo'lda to'qilgan ko'ylakdan iborat.

Ustki qo'l to'qima ko'ylak ichki payetli ko'ylakda n uzunroq, to'g'ri siluetli.

Yaxlit yengli, yeng uchi toraytirilgan.

Bo'yin o'mizi payetli ichki ko'ylak yoqa o'mizini takrorlaydi.

Old va ort bo'laklar yaxlit.



Taklif model-2

Street style yo`nalishidagi ayollar kostumi.

Silueti to`g`ri.

Kostyum payet matoli va qo`lda to`qilgan ko`ylakdan iborat.

Payetka matoli ko`ylak uzunligi tizzadan yuqori.

Etak qismi tekis.

Bo`yin o`mizi hamda yeng eskiz bo`yicha shakllantirilgan.

Ustki qo`l to`qima ko`ylak uzunligi tizzadan pastda.

Etak qismi eskiz bo`yicha shakllantirilgan.

Bo`yin o`mizi hamda yeng payetkali ichki ko`ylak o`mizlarini takrorlaydi.

Old va ort bo`laklar yaxlit.



Taklif model-3

Street style yo`nalishidagi ayollar kostumi.

Silueti to`g`ri.

Kostyum payet matoli va qo`lda to`qilgan ko`ylakdan iborat.

Payetka matoli ko`ylak uzunligi bo`ksa chizig`idan pastda.

Etak qismi tekis.

Bo`yin o`mizi eskiz bo`yicha shakllantirilgan.

Yeng uzun.

Ustki qo`l to`qima ko`ylak uzunligi tizzadan pastda.

Yaxlit yengli.

Yeng uchi kengaytirilgan.

Bo`yin o`mizi payetkali ichki ko`ylak yoqa o`mizini takrorlaydi.

Old va ort bo`laklar yaxlit.



Taklif model-4

Street style yo`nalishidagi ayollar kostumi.

Silueti to`g`ri.

Kostyum payet matoli va qo`lda to`qilgan ko`ylakdan iborat.

Payetka matoli ko`ylak uzunligi bo`ksa chizig`idan pastda.

Etak qismi tekis.

Bo`yin va yeng o`mizlari eskiz bo`yicha shakllantirilgan.

Ustki qo`l to`qima ko`ylak uzunligi bo`ksa chizig`idan pastda.

Yaxlit yengli, uzunligi tirsakkacha.

Old va ort bo`laklar koketkasi yaxlit.

Old bo`lak o`rta qirqimli bo`lib, koketkaga biriktirilgan.

Bo`yin o`mizi payetkali ichki ko`ylak yoqa o`mizini takrorlaydi.



Taklif model-5

Street style yo`nalishidagi ayollar kostumi.

Silueti to`g`ri.

Kostyum payet matoli va qo'lda to'qilgan ko'ylakdan iborat.


Payetka matoli ko'ylak uzunligi bo'ksa chizig'ida.


Bo'yin va yeng o'mizlari eskiz bo'yicha shakllantirilgan.

Ustki qo'l to'qima ko'ylak old bo'lak uzunligi bo'ksa chizig'ida, ort bo'lak eskiz bo'yicha 10 sm ga uzaytirilgan.


Bo'yin va yeng o'mizlari payetkali ichki ko'ylak yoqa o'mizini takrorlaydi.


2.1.4 Detallarni, Chiziqlarini, choklarni dekor bezakli, Hajmiy elementlarni texnik eskizlarni ishlab chiqish






A-A





A-A



2.2. Kolleksiyanı loyihalash usulini tanlash va asoslash

Kostyum loyihalash-bu tadqiqot etib, eskizlar, maketlar va modellarni yaratish, buyumlarni chizmasini va hisobini ishlash, tajriba uchun namunalarni ishlash, tajriba uchun namunalarni ishlash, belgilangan xususiyatlarga ega yangi kiyim namunasini yaratish jarayondir.

Loyiha vazifalarni eng optimal variantini qidirish jarayonida muhandis – hisobchi usuli tanlandi. Muhandis –hisobchi usulida bir qator metodikalar ichidan Ingliz metodikasi tanlandi. Ushbu metodika tanlanganinig sababi shundaki ushbu metodikada o'lcham bo'yicha madellashtirilayotgan kiyim qomat bo'ylab moslashishi juda yaxshi bo'lganidadir.

Konstruktiv nuqtalarning belgilanish sistemasi va noldan boshlab o'sib boruvchi raqamlarning ishlatilishi asosiga binoan andazani qurush sxemasining mohiyati bo'yicha har bir nuqtaning joylashish ketma-ketligini aniqlash mumkin. Konstruktorlik modellashtirishning barcha usullari rasmlarga olingan bo'lib modellarning texnik rasmlari va konstruktorlik o'lchamlar asosida bajarilgan andazalar sxemasi ko'rsatib o'tilgan.

Unifred Aldrich- moda industriyasida yuqori malakali kadrlarni o'ziga jalb etuvchi ingliz metodikasi hisoblanadi. Liboslarni konstruksiyalash bu- jarayon hisoblanib, uning asosiy obyekti qomat kiyim sistemasidir. Qomat bo'yicha ma'lumotning, o'lcham belgilarining, qomat tuzilishining o'ziga xos xususiyatlarining qanchalik to'liqligiga qarab chizmalarning sifati belgilanadi. Shu sababli ko'gina konstruktiv parametrlar hisoblanmaydi va ayollar tipavoy qomatiga mos tekshirilgan o'xshashliklar orqali amalga oshiriladi.

Unifred Aldrich ingliz metodikasi modellashtirishning va konstruktirlashtirishning noyob usullarini yaratishda dizayner g'oyasini rivojlanishiga imkon beradi.

Kolleksiyanı loyihalashda muhandis-hisobi usuli tanalanadi va asoslanadi. Muhandis-hisobida o'lcham, qo'shimcha hamda chizmaga ahamiyat berildi.

2.3. Konstuktiv -texnologik qism

2.3.1 Ayollar liboslari to'plamini ob'ekt paketini konfeksiyalash

Taklif modellarni yaratayotgan vaqtning o'zida dizayner modelyer uni qaysi matodan tikishni ko'z oldiga keltirib tasavvur qilib ko'radi.

Eskiz yaratayotgan paytda avvalam bor unga ketadigan matodan tashqari qanday furnitura mahsulotlari ketishini chamalab ko'rilishi kerak.

O'zbekistonning geografik joylashishi va iqlimi. Yoz kunlari odam organizmiga yuqori harorat ta'sir etadi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Markaziy Osiyo Respublikalarida ushbu muammo jiddiy ahamiyatga ega. Keng miqyosda o'tkazilgan ilmiy izlanishlar Markaziy Osiyo hududiga taalluqli iqlimiy, gidrologik va ekologik muammolarga bag'ishlangan. Hozirgi vaqtga qadar mazkur territoriyaga oid iqlimiy rayonlashtirishning variantlari ishlangan bioiqlimiy kartalar komplekti tuzilgan, turli iqlimiy va bioiqlimiy ta'riflar, atlas va ma'lumotnomalar mavjud. Regionga hos atmosfera jarayonlarining hususiyatlarini o'rganish maqsadida tadqiqotlar o'tkazilmoqda.

O'zbekistan Respublikasi Evroosiyo kontinentining markaziy qismida shimoliy kenglikning o'ttiz yettinchi – qirq beshinchi, graduslari va sharqiy uzunliklarning ellik oltinchi va etmish uchinchi graduslari orasida joylashgan; uning umumiy maydony 447,4 ming km² ga teng.

O'zbekiston Shimoldava G'arbda Qozog'iston bilan, Janubda Turkmaniston va Afg'oniston, Sharkda esa Tojikiston va Qirg'iziston bilan chegaradoshdir.

Respublika tengsizikki qismga bo'linadi: 78,8 foizi - tekisliklar, qolgan 21,2 foizi - tog'lar va tog'lararo cho'nqirlar.

Respublika hududi Osiyoning quruq zonasiga kiradi. Uning 70 foizdan ko'prog'i iqlimiy o'zgarishlarga moyi isahro va yarimdashtlardan iborat.

Tavsiya qilingan materiallar tavsifi

Kolleksiya payetkali matosi hamda pryajadan tikilgani uchun o'ziga yarasha qonunlari bor, ya'ni mato xususiyatiga bog'liq.

Pryaja ipi

Payetkali matoda cho'ziluvchanlik hususiyati 3 guruhga bo'linadi:

I guruhda 0-40%

II guruhda 40-100%


III guruhda 100%dan tepada

Ushbu cho'ziluvchanlik hususiyati trikotaj bilan bog'lanilganda I guruhga 2-4 sm II guruhga 0 III guruhga minus sonlar.

2.1-jadval

№	Mato nomi	Mato tarkibi		Qalinligi		To'qilishi	Eni	Og'irligi
		Tanda	Arqoq	Tanda	Arqoq			
1.	Payetkali mato	kapron	viskoza				140	
3.	Pryaja						438	100

Konfeksion karta

N	Nomlanishi	Namuna
1	Asosiy mato Pryaja	
2	Asosiy mato Payetkali	
3	Ip	

2.3.2. Asosiy konstruksiya qurish usulini asoslab tanlash

Kolleksiyani loyihalashda muhandis-hisobi usuli tanlandi.

Barcha konstruksiyalash usullari nazariy tayanchsiz, konstruktoming shaxsiy tajribasi va intuitsiyasiga asoslangani sababli qator davlatlar hamkorligida 1976- yildan 1980-yilga qadar konstruksiyalash umumiy uslubini yaratish uchun kiyim konstruksiyalash sohasida muhim masalalar yechildi:

- kiyim konstruksiyalash bo'yicha nufuzli davlatlar tiliga xos atamalar mazmui tuzildi;
- konstruktorlik hujjatlarining yagona tizimiga asoslangan kiyim
- konstruksiyasiga oid texnik chizmalar qoidalari ishlab chiqildi;
- o'smirlarga mo'ljallangan kiyimlar yagona
- konstruksiyalash uslubining nazariy asoslari yaratildi;
- kiyimlar asosiy turlarining bazaviy, konstruksiyalari tuzildi;
- kiyim detallarining asoslangan gradatsiyasi prinsiplari asosanib tavsiya
- konstruksiya tuzishda materiallar xususiyatlarini hisobga olish bo'yicha tavsiyalar tuzildi;
- konstruksiyada texnologiyaning hisobga olinadigan xususiyatlari ko'rsatildi.

Ushbu tavsiyalar 1981 -yildan 1985-yilgacha laboratoriya va ishlab chiqarish sharoitida keng miqyosda sinalgandan so'ng kiyim konstruksiyalash yagona uslubi sifatida amaliyotga yo'llanma oldi.

Birlashgan davlatlar yagona uslubi kiyimlarning hamma xili, hamma turi va barcha erkaklar , ayollar, o'g'il bolalar, qizlar yoshi hamda jinsiga oid guruhlar uchun umumiy va yagonadir.

2.3.3 AK chizmasini qurish uchun dastlabki ma'lumotlar

Tipaviy figura o'lchamlari

2.2.-jadval

№	O'lchamlar nomi	Shartli belgisi	Qiymati
11.	Ko'krak aylanasi uchinchi	Or3	88
22.	Ort bel chizig'igacha uzunlik	Дтс	41
33.	Bo'ksa va bel orasidagi masofa	Дтб	20.6
44.	Yelka kengligi	Ош	37
55.	Bo'yin qiyamasi	Шп	12.2
67.	Orqa kengligi	Шс	34.4
88.	Ort o'miz balandligi	Впрз	21
89.	Yeng uzunligi	Дрзап	58

AK qurish uchun qo`shimchalar

2.3.-jadval

№	Qo`shimchalar nomi	Shartli belgisi	Qiymati, sm
11.	Ko`krak aylanasi qo`shimcha	ПогЗ	9-14
22.		Пдтс	3
33.	Orqa kengligining umumiy qo`shimchasi	Пшс	3-4.5
44.	Yeng o`mizi qo`shimchasi	Пвпрз	4-6
55.		Пдрзап	1

2.3.4.AKva Kni xisoblash va qurish

Ayollar ko`ylagi AK xisobi

2.4.-jadval

№	Konsruksiya bo`lagining nomi		Xisobi	Qiymati,sm
	Nomi	Belgilanishi		
1	2	3	4	5
	0-1	Дтс+3	41+3	44
3	1-2	1/2 Дтс-(1.5...2.5)	1/2*41-1,5	19
4	0-3	1/4 Ог3+4.5(+7)	1/4*88+7	29
5	0-6	2	2	2
6	6-7	Впр3+0.175(Ог3-40)+3+4sm(6sm)	21+0.175(88- 40)+0	29.4
7	6-9	0.5/6-7/	0.5*29.4	14.7
8	6-10	1/4/6-9/-0.25	1/4*14.7- 0.25	3.425
9	0-11	1/5 Ош+0.4(+0.7)	1/5*37+0.6	8
10	7-12	1/2 Шс+3(+4.5)	1/2*34.4+3.8	21
11	14-15	1.5	1.5	1.5
12	0-16	1/5Ош+0.4(+0.7)	1/5*37+0.6	8

Yeng AK xisobi

2.5.-jadval

	Konsruksiya bo`lagining nomi	Xisobi	Qiymati,sm
--	------------------------------	--------	------------

№	Nomi	Belgilanishi		
1	2	3	4	5
1	0-1	$0.5 \cdot 6 - 7 + 1$	$0.5 \cdot 29.4 + 1$	13.25
2	0-2	Дрзап+1	58+1	59
3	0-3	/15-13-8/	30	30
4	2-4	$2/3 \cdot 1 - 3 + 0.5$	$2/3 \cdot 26.25 + 0.5$	18
5	4-5	(B-BP)+b		9.5
6	0-6	(A-E)		4.2
7	0-7			2
8	7-8			1,75

2.3.5 Ayollar ko`ylagini konstruktiv modellashtirish

Ushbu bitiruv malaka ishiga tanlab olingan asosiy model konstruksiyasi modellashtirishda ingliz metodikasidan foydalanildi. Konstruksiya eskizga mos kengaytirildi. Old bo'lak etak qismi kaltalatildi. Old va ort bo'lak etak qismlari eskizga mos modellashtirildi. Yelka qiyaligi kengaytirilib, yeng o'mizi berkitildi. Yelka qiyaligidan yeng uzunligi qiymati qo'yilib, yeng yaxlit bichim holiga keltirildi.

2.3.6. Ishchi xujjatlarini ishlab chiqish

2.3.6.1. Ayollar ko`ylagi andozalarini tayyorlash tamoyillari tavsifi

Detallar andazalarining chizmasi bu ularning konstruksiyasini, shakli va o'lchamlarini, ishlov berish hamda bichishdagi texnik shartlarini ifodalaydigan texnik hujjatdir. Andazalarning chizmasi buyumni tuzuvchi barcha detallarga, konstruktorlik hujjatlarning yagona sistemasi talablariga muvofiq tayyorlanadi.

Kiyim detallari andazalarining chizmasi konstruksiyaning model xususiyatlari kiritilgan texnik chizma asosida tavsiya qilingan materiallar xususiyatlari haqidagi va ularga texnologik ishlov berish usullari to'g'risidagi ma'lumotlar yordamida tuziladi. Andazalar chizmasi quyidagi ketma-ketlikda bajariladi:

- konstruksiya chizmasi batafsil tekshiriladi;
- chizmaga gazlamaning kirishuvchanligi bilan bog'liq aniqliklar kiritiladi;
- detallar chizmasining nusxalari boshqa qog'ozga tushiriladi;
- asosiy detallar andazalarining ishchi chizmasi quriladi;
- hosila va yordamchi andazalarning ishchi chizmalari quriladi;
- ishlab chiqarishda foydalanishga mo'ljallangan andazalar chizmasidan andazalar shablonlari tayyorlanadi.

Qayd etilgan ketma-ketlik quyidagi tartibda amalga oshiriladi. Konstruksiya chizmasini tekshirish maqsadida old va orqa bo'laklar, qirqma yon bo'lak, yenglar, ostki yoqa singari asosiy detallarning nusxasi maxsus moslama yordamida chizmadan qalin qog'ozga ko'chiriladi va qirqib olinadi. Qirqib olingan andazalar shablonida ko'krak, bel, bo'ksa chiziqlari, old o'tar chizig'i, vitachkalar, cho'ntaklar chizig'i va boshqa asosiy konstruktiv chiziqlar belgilanadi.

Andazalar shabloni yordamida konstruksiya chizmasida biriktiriladigan qirqimlarning tengligi, konstruktiv qirqimlar tutashmalari, nazorat kertiklar joylarining detallarda o'zaro mosligi tekshiriladi.

Andozalardagi chok haqlari

2.6.-jadval

	Detal vaqirqimlarnin g nomi	Chok haqi nomi va qiymati, 10 mm					IZOX
		Birikti rma chok	Mag`iz chok	Buklash qayirishga	Bostir ma chok	Qirqish ga	
1	2	3	4	5	6	7	8
1	Old bo`lak yelka qirqim	10	5	—	—	—	
2	Old bo`lak yon qirqimi	10	5	—	—	—	
3	Old bo`lak yeng o`mizi qirqimi	10	5	—	—	—	
4	Ort bo`lak yelka qirqimi	10	5	—	—	—	
5	Ort bo`lak yon qirqimi	10	5	—	—	—	
6	Ort bo`lak yeng o`mizi	10	5	—	—	—	
7	Yeng yon qirqimi	10	5	—	—	—	

Detallar spesifikatsiyasi

2.7-jadval

№	Buyum detallarining nomi	Detal kodining belgisi	Soni		Izox
			Andozalar	Detallar	
1	2	3	4	5	6
1	Ort bo`lak	01	1	1	
2	Old bo`lak	02	1	1	
3	Yeng	03	1	2	

Andozaga nazorat kertiklar qo`yish joylarining ro`yxati

2.8.-jadval

№	Detallar va qirqimlar nomi	Kertiklar joylashishi
1	2	3
1	Yeng -yeng yon qirqimi	Yeng yon qirqimi


Detallarda tanda ipining nominal yo`nalishi va andozalarda ulardan yo`l
qo`yilgan og`ishlar

2.9.-jadval

№	Detallar nomi	Tanda ipining yo`nalishi	Tanda ipining yo`l qo`yilgan og`ishi
1	2	3	4
1	Ort bo`lak	Yon chizig`iga perpendikulyar	2%
2	Old bo`lak	Yon chizig`iga perpendikulyar	2%
3	Yeng	Etak chizig`iga perpendikulyar	2%

2.3.6.2 Andozalarni joylashtirish

2.3.7. Texnologik ishlov berish



2.4. Kolleksiya reklama loyihasini ishlab chiqish

2.4.1. Nom tanlash (Brand-name)

Moda industriya sohasida reklama muhim o'rin egallaydi. Reklama – bu birovga biron narsa haqida ma'lumot berish, ko'rsata bilish, savdo etakchidir. Har bir iste'molchi o'z shaxsiy ehtiyojlariga ega betakror shaxsdir. Iste'molchining umumlashtirilgan tavsiyani yaratish sari birinchi qadam – uning muayyan guruh – yoshlar, ayollar, ziyolilar, ishchilar va hokazoga mansublilari bo'lishi mumkin. Avvallari iste'molchi jamiyatda urf bo'lgan namunalardan nusxa olishga harakat qilardi, hozir esa u boshqalardan ajralib turishni yoqtiradi.

Kolleksiyaning yaratish jarayonida ana shu jihatlariga e'tibor berildi va unga nom tanlandi. Kolleksiya A.Temur askarlar liboslariga asoslanib yaratilganligi sababli nom tanlash osonroq kechdi. Brend nomi "Temurida" ya'ni, Temur naslidan degan ma'noni anglatadi. Logotip esa sharf taqqan ayol yuzi aks etgan holat asos bo'ldi. Bu esa ayol nafosati, go'zalligini anglatadi. Garchi jangchi libosida bo'lsa ham.

Kolleksiya reklama loyihasi ishlab chiqildi.

2.4.2. Ayollar ko'ylagi to'plami reklama loyihasini ishlab chiqish

Reklama-lotinchacha „reklamar“ baqirish ma'nosini bildirgan bo'lib, keyinchalik esa ovoz chiqarish va talab qilish ma'nolarini anglatgan. Oddiy tilda aytganda reklama ma'lum qilish, nimadir to'g'risida ma'lumot yetkazish, tovarga haridorlarni e'tiborini chaqirish uchun xizmat qiladi.

Reklama – bu axborot tarqatishning pullik shakli bo'lib, u tovarni yoki xizmatni hajmini ko'paytirish maqsadida buyurtmachi tomonidan berilgan informatsiyani jamiyatga yetkazish usuli hisoblanadi.

Reklama quyidagi vazifani bajaradi:

- Axborot beruvchi yangi tovar, firma aniq hodisa to'g'risida aniq ma'lumot beradi;
- Bildiruvchi tovar yoki firmaga sekin-asta iste'molchilarni e'tiborini ko'paytirish, bilimlarini oshirish va shu tovarni sotib olishga undash;
- Eslatuvchi haridlar orasida tovarni qayerdaligini unutmaslik va tovar to'g'risida axborotni esda tutishni ta'minlaydi.

Reklamani yaratish quyidagi bosqichlardan iborat:

- Iste'molchilarni o'rganish, reklama qilinadigan tovar yoki xizmatlarni o'rganish va bozorni o'rganish;
- Reklama vositalarini ishlatish, ishlab chiqarish, maqsadni aniqlash va qo'yish, bozor chegaralarini belgilash va ijodiy yondashuvni ishlab chiqish;
- Reklama vositalarini tanlash va ularga sarflanadigan harajatlarni hisoblash. Narx va e'lonlarni ko'rsatish grafiklarini ishlab chiqish;
- E'lonlarni mazmunini tuzish, badiiy bezatish va ishlab chiqarish.

Reklama turlari bo'yicha quyidagilarga bo'linadi:

- Televidenie va radioreklama;
- Banner reklama;
- Suvenir yoki buyumli reklama;
- Direkt meyl;

Nazariy ma'lumotlar tahlil etilib, kolleksiyaga muvofiq reklama ishlab chiqildi.

3. Ekologik qism

Tikuvchilik fabrikalarida yashindan himoyalaniş haqida tushunchalar

Hozirgi paytda insoniyat hayotini elektr tokisiz tasavvur qilish juda qiyin. U ishlab chiqarishda, transportda, maishiy hayotda va hayotning barcha jabhalarda keng qo'llaniladi. Shu bilan birga elektr toki tufayli jarohatlanish xavfi ham oshib borayapti.

Olimlarning tadqiqot qilishlaricha elektr bilan jarohatlanishda quyidagi faktorlar ta'sir qilar ekan: tok kuchi, kuchlanish, tokning turi va chastotasi, tokning tanadan o'tish yo'li, tokning ta'sir qilish vaqti hamda odam tanasining shaxsiy xususiyatlari.

Odam tanasidan o'tayotgan tok kuchi qiymatielektr toki bilan jarohatlanishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shuning uchun tikuv korxona xududlarida yashin hosil bo'lganda atmosferadagi razryadlarning elektr kuchlanishi 150 mVga yetadi, tok kuchi esa 200 kA gacha va harorati 6000 dan 30000⁰S gacha yetib kuchli portlashlar hosil qiladi, yerdagi obyektlarni buzib yong'in chiqaradi. Bundan tashqari chaqmoqning to'g'ridan-to'g'ri ta'siri ostida elektromagnit va elektrostatik induksiyasi tarzida tez o'zgaruvchan chaqmoq toki ko'rinishida bo'lib, yerdagi obyektlarga yaqinlashganda xavf tug'diruvchi ikkinchi "chaqmoq" vujudga keltiradi. Bular esa yerdagi sanoat obyektlariga kuchli zarar yetkazishi mumkin. Shuning uchun barcha inshootlar va qurilmalar yong'in va portlash xavfi bo'yicha hamda yong'inga bardoshlilik bo'yicha yashindan himoyalangan bo'lishi shart. Chaqmoq ko'p chaqadigan xududlardagi va boshqa o'rtacha yil davomida chaqmoq hosil bo'lishini hisobga olgan holda shu xududlardagi obyektlar yashindan himoyalanişi bo'yicha 3 kategoriyaga bo'linadi.


- 1) 1 sinf V-I va V-II qaysiki gaz, bug', chang ajralib chiquvchi va portlovchi aralashmalarni atmosferaga chiqaruvchi obyektlar. 2 sinf V-I va V-II qaysiki portlovchi aralashmalar avariya holatda ajralib chiqaruvchi

texnologik jarayon o'rnatilgan va V-I sinfga taaluqli omborxonali obyektlar.

- 2) II-I, II-II, II-III qaysiki bu xonalarda yonuvchi qattiq moddalar va suyuq moddalar hamda changlar ajralishi mumkin bo'lgan obyektlar. Ularga ochiq omborxonalar, tutun chiqaruvchi quvurlar, suv ta'minlovchi inshootlar turar joylar kasalxonalar va kinoteatrlar.


Atmosferada uchraydigan kuchli momaqaldiroq razryadlari- yashindan yerdagi obyektlarni saqlash maqsadida yashin qaytargichlar qo'llanadi. Ular 3 turli bo'ladi:

1. Sterjenli yashinqaytargichlar.
2. Trosli yashinqaytargichlar.
3. To'rli yashin qaytargichlar.



Sterjenli yashin qaytargich

Trosli yoki antenna ko'rinishda.



To'rtli yashin qaytargich.

Elektrostatik zaryadlardan saqlanish

Ma'lumki elektrostatik zaryadlar dielektrik moddalarni ishqalanishi natijasida paydo bo'ladi. Mashina qismlaridan o'tayotganda o'zaro hamda metall qismlariga ishqalanib zaryadlanadi. Tadqiqotlar tikuv mashinadan chiqayotgan tarandining 1100-1600 V gacha zaryadlanishi va musbat belgiga ega bo'lishini ko'rsatadi. Zaryadlangan tolalar to'qimachilik sanoati texnologik jarayonlarda ko'pgina noqulayliklar keltirib chiqarishi ma'lum. Masalan, sexda changni ko'paytiradi, uzilish ko'payadi, notekislik ortadi, mahsulot bir tekis to'qilmaydi va h.k.

Shu bilan birga kishi salomatligiga, uning normal ishlashiga ham tushkunlik qiladi. Kam miqdordagi toklar kishi organizmiga uzoq vaqt ta'sir qilsa zararlidir. Bu hollarda kishining asab sistemasi shunchalik ishdan chiqadiki, u o'z vazifasini bajara olmay qoladi. Doimo zaryadlangan mahsulot bilan ishlagan ishchilarda bunday asab buzilishlari organizmning umumiy holatiga ham salbiy ta'sir qilishi kuzatiladi. Cun'iy tolalardan to'qilgan po'stin- 20000 V gacha, poyondoqlar 15000-20000 V gacha zaryadlanishi mumkin.

Elektrostatik zaryadlarni kamaytirish usullari:

1. Xom-ashyo va mahsulotlarni tarkibiga antistatik moddalar qo'shish yoki ularga shu moddalar bilan ishlov berish.
2. Mashinalarning metal qismlariniyergaulash.
3. Havodagi manfiy ionlar sonini ko'paytirish (namlikni oshirish).

Xulosa

Bitiruv malakaviy ishda “Harbiylar” uslubida zamonaviy liboslar to'plami dizayn-loyihasini ishlab chiqishda quyidagi ishlar olib borildi. Bunda dastlabki loyiha oldi qismi ishlab chiqildi. Loyihalanayotgan assortiment bo'yicha istiqbolli moda yo'nalishini tavsiflab berildi, o'xshash modellar bo'yicha marketing tadqiqot olib borildi va tahlil qilindi, ijodiy manbaa tanlanib asoslandi, shuningdek, loyiha qismida eskizlar yaratildi va modellarni texnik tavsifi ishlab chiqildi va shu asosida asos kontsruksiyasi qurildi.

O'zbekiston sharoitini o'rganib chiqilgan holda, komplekt uchun material tanlandi va material hususiyatlari o'rganib chiqildi. “Unifrend Aldrich ingliz metodikasi” uslubi bo'yicha konstruksiya qurish usuli tanlandi. Ishchi hujjatlar tuzilib yangi model andozalari tayyorlandi, andozalar modellashtirilgan holda tanda ipi va chok haqqilari berildi.

Bitiruv malaka ishi ayollar kiyimlari texnologik jarayoni loyihalandi. Modelni tikish uchun buyum material hususiyatlarini va matodan foydalanish mumkinligi ko'rib chiqilgan.

Bitiruv malakaviy ishida ekologik qismi o'rganildi va tahlil qilindi va shular asosida tavsiyalar ishlab chiqildi.

Bu to'plam yoshlar uchun mo'ljallangan kundalik kiyim. hamda ommaviy ishlab chiqarishga tavsiya qilindi.

Qo'llangan adabiyot va manbalar ro'yxati

1. I.Karimov “2012 yil yakunlari va 2015 yil ustuvor yo‘nalishlari” ma’ruzasi.
2. Карцер “Рисунок и Живопись”- М.; 2005
3. “Академический рисунок в изобразительном искусстве” –М.; 2008
4. Abdurasilov S., Tolipov N. “Rang tasvir”- T.; Bilim nashriyoti O‘MTX TM 2005
5. Boymetov B. , Abdurasilov S. “Chizmatasvir”-T.; TDPU 2004
6. S.Jumayev “Sozlar sadosi”. – T.: “Jahon” axborot agentligi bosmaxonasi, 2001.
7. Козлова Т.В. “Художественное проектирование костюма”М ЛП 1988 г.
8. Черемных А. И. “Основы художественного проектирования одежды” .М 1986 г.
9. Бердник Г.О. “Дизайн костюма” Ростов Феникс 2000 г.
10. Бердник Г.О. “Основы художественного проектирования одежды и эскизной графики костюма”.Ростов. Феникс. 2001 г.
11. X.X.Kamilova, N.K.Hamrayeva “Tikuv buyumlarini konstruksiyalash”. - T.: Cho’lpon nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi, 2011.
12. G.K.Xasanbayeva “Libos dizayni” ma’ruza matni. - T.: TTYeSI bosmaxonasi, 2011.
13. Е.А.Янчевская “Ayollar ustki kiymini konstruksiyalash”. - T.: “O’qituvchi”, 1997.
14. M.Sh.Jabborova “Tikuvchilik texnologiyasi”. – T.: “O’zbekiston”, 1994.
15. “Единая методика конструирования одежды сзв (ЕМКО СЭВ)”, Том – 2. – М.: 1988.
16. Ф.М.Пармон “Композиция костюма”. - М.: Легпромбытиздат, 1985.

17. О.И.Крымова «Проектирование швейных изделий». – Т.: «Укитувчи», 1985.
18. J.Ochilov “Gazlamashunoslik”. – Т.: Davlat ilmiy nashriyoti, 2008.
19. BAZAAR 2012 – 2013 (Журнал).
20. Ателье 2013 (Журнал).
21. COLESIONE 2013 (Журнал).
22. www.google.uz
23. www.ziyo.net
24. www.moda.uz
25. www.modnaya.ru
26. fashion_tv.com

